

“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyati  
Jamoatchilik kengashining 2026-yil

**ISH REJASI**

<b>T/r</b>	<b>Tadbir nomi</b>	<b>Ijro muddati</b>
<b>1</b>	“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ tomonidan qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarda, buyruqlarda, shuningdek, elektr energetikasi sohasini rivojlantirish dasturlarida jamoatchilik manfaatlari va jamoatchilik fikri hisobga olinishi, fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, jamiyat manfaatlarini himoya qilish sohasida qonun hujjatlari talablari ijrosini ta’minlash, Jamiyat zimmasiga yuklangan hamda ijtimoiy va jamoatchilik manfaatlariga daxl qiluvchi vazifalar va funksiyalarni bajarish ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish.	doimiy
<b>2</b>	“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJga nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan kelib tushgan ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni umumlashtirish va baholash.	aprel-dekabr
<b>3</b>	“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlari va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etish, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha olib borilgan ishlar ustidan monitoring va tahlil o‘tkazish.	doimiy
<b>4</b>	“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ faoliyatining ochiqqligini ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan tadbirlarni monitoring qilish, uning faoliyati to‘g‘risida batafsil axborot olish imkoniyatlarini tahlil qilish, ularni yanada kengaytirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.	doimiy
<b>5</b>	“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ faoliyatini isloh qilishda fuqarolar ishtirok etishi uchun yaratilgan shart-sharoitlarni o‘rganish.	sentabr-dekabr

6	<p>“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ xodimlari va ularning oilalarini uy-joy, ijtimoiy-maishiy, xizmat shart-sharoitlarini, ularga malakali tibbiy yordam ko‘rsatish sharoitlarini, shuningdek, ishdan bo‘shatilgan yoki zaxiraga olingan xodimlarni ijtimoiy va kasbiy moslashtirish bo‘yicha muammolarini kompleks tahlil qilish hamda tahlil yakunlari bo‘yicha mazkur sharoitlarni yaxshilash yuzasidan takliflar kiritish.</p>	doimiy
7	<p>“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari orqali keng jamoatchilikka ma’lumot berib borish.</p>	doimiy
8	<p>“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ faoliyatining ochiqligini ta’minlash, Jamiyat faoliyati to‘g‘risidagi axborotni e’lon qilish, rasmiy veb-saytni doimiy yangilab borish, shuningdek ommaviy axborot vositalari orqali chiqishlarni amalga oshirilishi ustidan jamoatchilik nazoratini olib borish.</p>	doimiy
9	<p>“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJda Jamoatchilik kengashining yig‘ilishlarini o‘tkazish.</p>	har 6 oy yakuni bo‘yicha